

## JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASHDA YOSHLAR SIYOSIY-HUQUQIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZARURIYATI

*Doniyor Yuldashev*

*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Jamiyat hayotini modernizatsiyalash sharoitida mamlakat taraqqiyotining asosiy strategik maqsadlaridan biri yoshlar siyosiy – huquqiy ongini takomillashtirishdir. Ushbu maqolada jamiyat hayotini modernizatsiyalashda yoshlar siyosiy-huquqiy ongini takomillashtirishning zaruriyati yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** yoshlar, davlat, jamiyat, siyosiy modernizatsiya, siyosiy-huquqiy ong, islohotlar, demokratiya.

Soʻnggi asr zamonaviy yoshlarning huquqiy madaniyati, siyosiy qadriyatlari va yoʻnalishlarining shakllanishi, shuningdek, yosh avlodning maqsadi va xatti-harakatlari tizimining faol oʻzgarishi bilan tavsiflanadi.

Siyosiy nazariyada modernizatsiya deganda zamonaviy ochiq jamiyatni shakllantirishga olib keladigan sanoatlashtirish, dunyoviy lashtirish, urbanizatsiya, taʼlim va fanning jadal rivojlanishi, vakillik siyosiy hokimiyati, huquqiy va ijtimoiy harakatchanlikni tezlashtirish, hayot sifatini yaxshilash, ijtimoiy munosabatlarni ratsionalizatsiya qilish jarayonlari majmui tushuniladi.

Siyosiy – huquqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida siyosiy – huquqiy nazariyalarda, gʻoyalarda, qarashlarda, shuningdek odamlarning siyosiy tizimga, siyosiy rahbarlarning faoliyatiga munosabati bilan bogʻliq hissiyotlari va kayfiyatlarida aks etadi. Shuningdek, siyosiy-huquqiy ong-bu siyosat, huquq, hukumat, siyosiy jarayonlar, subyektlar va institutlarga boʻlgan munosabatlarga vositachilik qiluvchi individual qarashlar majmuidir.

Yoshlarning siyosiy salohiyatining ijtimoiy-madaniy asoslarining xususiyatlarini har tomonlama oʻrganish ularning mamlakat siyosiy hayotidagi tayyorgarligi va ishtirokini baholash uchun muhimdir, chunki bugungi yoshlar yaqin kelajakda siyosatga kirib, mamlakatning rivojlanish yoʻnalishlarini aniqlaydilar va ularning siyosiy koʻrsatmalari mamlakatning kelajakdagi siyosiy rivojlanishida amalga oshirilishi mumkin.

Oʻzbekistonda yoshlar aholining asosiy qismini tashkil etadi. Yoshlarga mustaqillikka erishgan ilk kunlardanoq alohida ahamiyat berilgan. Xususan, 1991 yil 20 noyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov, 2016 yil 14 sentabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan

“O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Bu qonun O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkoni boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir. Zero, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma’lumoti va siyosiy e’tiqodidan qat’i nazar, yoshlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish;
- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish;
- huquq va burchlarning, erkinlik va fuqarolik mas’uliyatining birligi;
- jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi.

Jamiyatni isloh qilishning hozirgi sharoitida yoshlarga o‘z bilimlarini mustaqil egallay olish, o‘z hayotini, jamiyat hayotini baholashni va yo‘lga qo‘yishni, ko‘lami tobora kengayib borayotgan va o‘zgaruvchan axborot olamida mo‘ljal ola bilishni, o‘z ongida professionalizm va bilimdonlikni mustahkamlashni, o‘z tafakkuri asoslarini shakllantirishni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bunda o‘quv muassasalarida pedagog kadrlarning ahamiyati alohida o‘rin tutadi. Yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari samarali hamkorlik qilib kelmoqdalar.

Zamonaviy yoshlarning siyosiy salohiyatining tarkibiy qismlarini rivojlantirish va amalga oshirish darajasini bir necha darajalarda oshirish mumkin. Davlat va mintaqaviy darajada zamonaviylik talablarini inobatga olgan holda yoshlar siyosati asoslarini yanada takomillashtirish, yoshlar siyosati chora-tadbirlari tizimini aniq shakllantirish zarur. Ommaviy kommunikatsiyalar orqali axborot ta’siri tizimini shakllantirish, yoshlar media makonini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Ta’lim muassasalari doirasida yoshlarning siyosiy qadriyatlarini rivojlantirish ta’lim, ma’rifiy, ilmiy faoliyat tarkibiga turli tashabbuslarni, shu jumladan huquqiy madaniyat, fuqarolik va siyosiy faoliyat bo‘yicha maxsus fanlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Turli ma’naviy – ma’rifiy tadbirlar doirasida huquqiy ta’lim va ularni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, yuridik ta’lim sohasida OTM tanlovlari va loyihalarini tashkil etish, fuqarolik ma’suliyatini shakllantirish

va boshqalar zarur. Ta'lim muassasalarida yoshlar muammolari bo'yicha sotsiologik monitoring xizmatini yaratish maqsadga muvofiqdir. Masalan, har yili ta'lim muassasalarida "Huquq bilimdoni" tanlovi o'tkaziladi. Bu kabi tanlovlar yoshlarning xuquqiy-siyosiy bilimlarini oshirish, ularda konstitutsiya xaqida to'liq va ishonchli axborot olish va sog'lom ahborot muhitini rivojlantirishga shubhasiz turtki bo'ladi. So'nggi yillarda zamonaviy yoshlarning siyosiy voqealarga doimiy qiziqishi ortib bormoqda, ular asosan ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, bloglardan ma'lumot olishadi. Ko'pincha yoshlar o'z oilalarida, do'stlari va hamkasblari orasida mavjud siyosiy voqealarni muhokama qilishadi. Shuningdek, jamiyat asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganligiga, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk barkamol avlodni tarbiyalashda, yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlikning kuchaytirilganligiga, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta'minlashda ijtimoiy hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu jihatlar o'z navbatida yoshlarni vatanparvarlik ruhida kamol topishlariga xizmat qiladi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlari jamiyatning barcha sohalariga, fuqarolarning, shu jumladan yoshlarning ongi va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz yoshlarining ijtimoiy-siyosiy faolligi amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining samaralarini, navqiron avlod vakillari vatanimiz tanlab olgan mustaqil taraqqiyot yo'lini yakdil qo'llab-quvvatlashini dunyoga ko'rsatib beradigan muhim jarayondir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., O'zbekiton, 2023.
2. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" Qonun, 2016 yil 14 sentabr.
3. Zokirov I.B., Fuqarolik huquqi. –T., 2009.